

ASTRONOMIYA O'QITISHDA TAQDIMOTLARNI YARATISH VA ULARNI QO'LLASH TALABLARI VA IMKONIYATLARI

Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi

Ilmiy rahbar: Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

Norqulova Madina Hamza qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10434241>

Annotatsiya: Hozirgi zamon amaliyotida turli seminarlar, konferensiyalar, yangi mahsulotlarni e'lon qilish yoki yangi xizmat turlari bilan tanishtirish uchun taqdimot (reklama) ishlaridan keng foydalanilmoqda. Bu hol ayniqsa, o'quv jarayonlarida ommalashgan.

Kalit so'zlar: taqdimot(prezentatsiya), BillGeyts, gipermatn, ma'lumotnomalar,multimedia, grafik paketlar, Macromedia Direktor, Formula Graphics Multimedia System, Mikrocoft Pover Point dasturi, fayl, glavnaya, vstavka, dizayn, Vid.

Taqdimot (prezentatsiya) so'zi inglizchadan «presentation» - tasavvur qilmoq ma'nosini anglatib, ma'lum mavzudagi slaydlar yig'indisidan iborat. Asosan grafoprojektorlar yordamida ekranda kattalashtirib namoyish qilish uchun mo'ljallangan 35 millimetrdagi slaydlar va yupqa plyonkalar ishlatiladi. Oxirgi vaqtlarda komputer ekraniga ulash mumkin bo'lgan suyuq kristalli panellar ham keng tarqalgan. Multimedia texnologiyalariga qiziqish amerikalik kompyuter mutaxassisi biznesmen Bill Geytsning nomi bilan bog'liq. 80 yillarga kelib u ("National Art Gallery. London") nomli dasturiy mahsulotni yaratgan. Bu multimedia dasturida muzeyning ma'lumot omborlaridan foydalanilgan. Bunda turli muhitlardan – tasvir, tovush, animatsiya, gipermatn tizimi namoyon qilingan. Aynan mana shu multimedia dasturi o'z ichiga multimedining uchta asosiy tamoyilini qamrab olgan.

- Axborotni odam qabul qila oladigan bir nechta muhit yordamida tasvirlash. (multi –ko'p va media - muhit);
- Foydalanuvchi tomonidan –mustaqil qidiruv|| asosida dastur chegaralaridan chiqib ketmagan holda, o'zining mustaqil usullarini qo'llash;
- Navigatsiya vositalari va interfeys dizaynidan foydalanish.

Multimedia texnologiyalarining asosiy afzalliklari va xususiyatlariga quyidagilar tegishli:

- bitta axborot tashuvchisida katta hajmli turli ma'lumotlarni saqlash imkoniyati;
 - ekranda tasvirni yoki uning ayrim fragmentlarini kattalashtirish imkoniyati. (rejim –lupa);
 - tasvirlarni taqqoslash va turli dasturiy vositalar yordamida ularni qayta ishlash;
 - film va videotasmalardagi videofragmentlardan va –stop-kadr effektlaridan foydalanish;
 - ma'lumotlar omborini disk mundarijasiga kiritish, obrazlarning qayta ishlash usullari va animatsiya imkoniyatlari;
 - Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati;
 - turli matn, grafika va tovush muharrirlari va kartografik ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatlari;
 - avtomatik ravishda dasturiy mahsulotning umumiy mundarijasini ko'rib chiqish (–slayd-shou) yoki animatsiya va tovush bilan ta'minlangan –yo'l boshlovchi, ya'ni –"gid"||ni yaratish.
- Multimedia texnologiyalaridan oddiy foydalanuvchilar ko'plab maqsadlarda foydalanishi mumkin. Ular quyidagicha:
- O'qitish dasturlarida – bunda o'qitish jarayonida turli rasmlar animatsiyalar, elektron darslik,

elektron kitob va elektron o'quv qo'llanmalar bo'lishi mumkin.

-Ensiklopediyalar – bu biror-bir atamani yoki ilovani tushuntirishda turli multimedia ilovalarini qo'llash.

-Ma'lumotnomalar – berilayotgan ma'lumotni turli shaklda keltirish va tushinishni osonlashtirish.

-Grafik paketlar – turli grafik ilovalar ustida ishlash imkoniyatini beruvchi dasturlar.

-Musika tahrirlovchilar – musiqa fayllari ustida turli amallar bajarish.

Multimedia mahsulotlari yaratishga mo'ljallangan dasturlar sharhi

- Macromedia Director – taqdimot va multimedia mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dastur MMX-texnologiyalar bilan ishlaydi va tugmalar, slaydlar, klip va animatsiyalar bilan ishlashga imkon beradi.

Formula Graphics Multimedia System – interfaol rejimda ishlovchi multimedia dasturlarini tayyorlashni ta'minlaydi.

Sanab o'tilgan dasturlar qimmat turadi, shuning uchun foydalanuvchilar orasida bular kam ishlatiladi. Maktabda multimedia loyihalarni ishlab chiqish uchun nima qilish kerak, buning uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan Microsoft Office dasturlaridan foydalanish etarli. Agar loyihangizga ma'lumotlar bazasi qo'shishni istasangiz, sizga Access, animatsiya effektlari bilan taqdimot tayyorlashingiz uchun esa PowerPoint dasturi kerak bo'ladi. Power Point prezentasion (taqdimot) grafikli dastur qatoriga kiradi. Bu dastur o'zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animasiya effektlari, ovoz, videokliplardan iborat bo'lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan prezentasiyani komp'yuter ekranida, videomonitor va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Prezentasiya tuzish degani bu slaydlar ketma-ketligini ko'rish va bezagini berishdir.

Microsoft Power Point dasturi axborotlarni turli ko'rinishlarda namoyish qilish imkoniyatini beruvchi dasturdir. Bu dastur bir necha ish rejimiga ega bo'lib, axborotni oddiy yoki uning strukturasini ko'rish, unga turli izohlar berish, uning grafigini ko'rish yoki slaydini yaratish uchun qulayliklar yaratilgan. Unda asosan:

oddiy (обычный),

strukturali (структуры),

slaydlar (слайдов),

slaydlarni saralash (сортировщик слайдов) va

slaydlarni namoyish qilish (показ слайдов) ish rejimlari mavjud

Oddiy rejimda Microsoft Power Pointda oddiy ish rejimi uch bo'lakdan iborat bo'ladi: strukturalar, slaydlar, izohlar bo'lagi

Strukturalar bo'lagida taqdimot ishlarini tashkil qilish mumkin. Unda matn grafikasiz ifoda qilinadi va ro'yxatlar, abzatslar va slaydlar matni ko'rsatiladi. Slaydlar bo'lagida slaydlar formatlash imkoniyati bilan birga namoyon bo'ladi. Ulardan ba'zilariga rasmlar, ovozlari, hattoki kliplardan parchalar joylashtirish mumkin. Slaydlar ketma-ketligi ekranning o'ng tomonidagi yurgich (прокрутка) yordamida siljutiladi.

Izohlar bo'lagida esa, ma'ruzachi uchun kerak bo'ladigan yoki eshituvchilar uchun axborotlar yozilgan bo'lishi mumkin. Slaydlar saralash ish rejimida Microsoft Power Point oynasida barcha slaydlar baravariga miniatura ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu rejim slaydlarni qo'shish, ulardan keraksizini olib tashlash yoki joylarini almashtirish imkonini beradi. Taqdimot slaydlarini istalgan vaqtda ko'rish mumkin. Bu Показ слайдов rejimida amalga

oshiriladi. Bu ish repetitsiya yoki auditoriya oldida namoyish etish uchun bajariladi. Agar u animatsiyalar orqali va slaydlar ketma-ketligi bilan katta ekranda namoyish etilsa, maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Slaydlar ketma-ketligi sichqoncha bilan boshqariladi. MS Power Point 2010 oynasi ko'rinishi oddiy va sodda bo'lib, unda professional darajadagi taqdimotlar yaratishga kerak bo'ladigan barcha vosita(instrument)lar jamlangan. Uning tasma(lenta)sida to'qqiz guruhga bo'lingan vkladkalar mavjud bo'lib, ularda:

FAYL - fayl yaratish, ochish, saqlash, chop etish, ma'lumot olish

GLAVNAYA - slaydlar, almashishlar buferi, shriftlar, abzatslar, chizmalar, qidirish va almashtirish

VSTAVKA - slaydga jadval, tasvir, illyustratsiya, gipermurojaat, matn, belgi va multimediyalar joylash

DIZAYN - slayd sahifasi parametrlari, mavzulari va fonini tanlash

PEREXODI - bir slayddan boshqasiga o'tish, slaydni ko'rsatish vaqti va tovush o'rnatish hamda tanlanganlarni ijro etib ko'rish

ANIMATSIYA - slayd o'byektlariga harakat, qo'shimcha harakat, slaydni ko'rsatish vaqtini o'rnatish hamda tanlanganlarni ijro etib ko'rish

POKAZ SLAYDOV - taqdimotni boshidan yoki kelgan joyidan namoyish qilish va ularni sozlash

RETSENZIROVANIE - to'g'ri yozilganligini tekshirish, mtn yozilgan tilni o'zgartirish va izohlar o'rnatish

VID - taqdimotni ko'rish rejimini o'zgartirish, bir nechta oynalar bilan ishlash.

References:

1. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva Elements Of The Credit-Module System In Higher Education In The Republic Of Uzbekistan Web Of Scientists And Scholars: Journal Of Multidisciplinary Research 1 (8 ...
2. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva OPPORTUNITIES FOR THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM Web Of Humanities: Journal Of Social Science And Humanitarian Research 1 (8 ...
3. Khayrullaevna, K. G. (2020). The functions of nonverbal means in dialogic speech. Journal of Critical Reviews, 7(15), 6174-6183.
4. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva FINAL CONTROL WORK DISTANT. TSUL. UZ DOWNLOAD INSTRUCTION TO THE DISTANCE LEARNING PLATFORM Web Of Teachers: Inderscience Research 1 (8), 82-86
5. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION Web Of Technology: Multidimensional Research Journal 1 (8), 9-11
6. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva ADVANTAGES OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE CREDIT MODULE SYSTEM IN EDUCATION Web Of Discoveries: Journal Of Analysis And Inventions 1 (8), 9-13
7. Khasanova Gulrukh Khayrullayevna. (2023). DIALOGUE AND NONVERBAL MEANS. International Conference on Multidisciplinary Science, 1(5), 16–18. Retrieved from <http://mjstjournal.com/index.php/icms/article/view/278>

8. R Nilufar, GI Sayfullayeva Principles Of The Credit-Module System Diversity Research: Journal Of Analysis And Trends 1 (8), 49-52
9. AM Bozorova OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASTRONOMIYA KURSIDAN MASHG'ULOTLARNI O'QITISHDA VA TALABA KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI JORIY ...Journal Of Science-Innovative Research In Uzbekistan 1 (8), 6-11
10. SH Rozikulovich, S Gulhayo METHODOLOGY FOR FINDING THE TOPIC OF THE EARTH IN DISTANCE EDUCATION ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH Journal Of Academic Research And Trends In Educational Sciences 1 (10), 21-33 2022
11. Gulrukh Khasanova. (2021). THE EFFECT OF MIMICS AND VISION IN TEACHER-STUDENT COMMUNICATION. International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 61-64. Retrieved from <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/267>
12. GI Sayfullayeva, HR Shodiyev KREDIT MODUL TIZIMIDA FANLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI.

